

## QADIMGI TURKIY XALQLARDA TOTEMIZM VA SAJDALAR TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR

Alibekov Umurzok Yuldashevich, Guliston davlat universiteti  
katta o'qituvchisi

## ON THE HISTORIOGRAPHY OF TOTEMISM AND

### WORSHIP IN ANCIENT TURKIC PEOPLES

Alibekov Umurzok Yuldashevich, senior lecturer Gulistan State  
University

## К ИСТОРИОГРАФИИ ТОТЕМИЗМА И ПОКЛОНЕНИЙ

### У ДРЕВНИХ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Алибеков Умурзок Юлдашевич, старший преподаватель  
Гулистанского государственного университета

**Annotatsiya:** Qadimda turkiy qabilalarda totemizm tarqalgan bo'lib, ko'plab qabilalarning o'z totemi bo'lgan. Mazkur maqolada turkiy xalqlarda bo'riga sajda qilishdan tashqari, ko'plab miqdorda hayvonlar kulti mavjud bo'lganligini ochib beradigan ayrim yozma manbalar va ilmiy ishlar sharhlangan.

**Kalit so'zlar:** totemizm, kult, ramz, diniy e'tiqod, sajda, Oq bo'ri, turkiy xalqlar.

**Abstract:** In ancient times, totemism was widespread among the Turkic tribes; many tribes had their own totem. This article provides a review of some written sources and scientific works, revealing that the Turkic peoples, in addition to the cult of the wolf, had a large number of animal cults.

**Keywords:** totemism, cult, symbol, religious belief, worship, White Wolf, Turkic peoples.

**Аннотация:** В древности у тюркских племен был распространен тотемизм, у многих племен был свой тотем. В данной статье сделан обзор некоторых письменных источников и научных работ, раскрывающих, что у тюркских народов кроме культа волка, существовало большое количество культов животных.

**Ключевые слова:** тотемизм, культ, символ, религиозное верование, поклонение, Белый волк, тюркские народы.

**KIRISH.** Totemizm - dinning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, bu shakl bir vaqtlar juda keng tarqalgan, ammo hozir juda cheklangan miqdorda mavjud. Totemizm diniy va ijtimoiy tizim bo'lib, "totem" deb ataladigan narsaga sig'inishga asoslangan. Birinchi totemlar faqat hayvonlarning ma'lum bir doirasi edi. Ibtidoiy odam hali hayvonot olami bilan bir bo'lganida, bu "yosh" odam hali tabiatdan ajralib, o'zini ana shu tabiatga qarama-qarshi qo'ya olmaganida, hayvonlar totemiga sig'inish paydo bo'lgan. Endi esa qadimgi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlarida totemistik qarashlar ustun mavqeni egallaganligi bizga ma'lum.

Qadimgi turkiy jamiyatda ayrim yetakchilar o'z kelib chiqishini totem hayvonidan dunyoga kelgan (tug'ilgan) afsonaviy ajdodlari bilan

bog'lashgan. Totemizmning qadimgi turkiylar davrida murakkab diniy butparast tizimi sifatida mavjudligi turli asotirlarda, afsona va shajara naslnomalarida uchratamizki, ularda ibtidoiy hayvon totemi urug'ning ibtidosi, ajdodi hisoblanadi hamda odamsifat mavjudot bilan sintez kabi tasavvur qilinadi[6, b.17].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

L.N.Gumilev o'zining "Qadimgi turkiylar" asarida, D.G.Savinov va S.G.Klyashtorniy "Qadimgi Yevrosiyaning dasht imperiyalari" monografiyasida, shuningdek, A.N.Bernshtam, G.M.Davletshin va boshqa olimlar o'z maqolalarida turkiy qabila va urug'larning diniy e'tiqodlari va totemlari yuzasidan ham ma'lumot keltirganlar [4,5,6,11]. F.Toshboyev va O.Mamirovlar Ustrusho-



<https://orcid.org/0009-0003-5143-6736>

e-mail:

[umurzokalibekov@gmail.com](mailto:umurzokalibekov@gmail.com)

na aholisining e'tiqodida o'rin olgan qo'y kulti haqida ma'lumot berilgan[14]. M.H.Pardayev totemizm diniy e'tiqodining yuzaga kelishi, shakllanishi, qo'y va bo'ri zoomorf tasvirlariga sig'inishining o'zaro bog'liqligini tadqiq etgan[9]. S.Soatova bo'riining Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida muhim zoomorf timsoli bo'lganligini ta'kidlagan[13]. Qirg'izlarda bo'ri totemi bilan bog'liq an'analarida bo'ri odamlarni turli kasalliklardan, omadsizlik, yovuzlikdan saqlovchi himoyachi sifatida namoyon bo'lishini T.D.Bayaliyeva ko'rsatgan[3]. Boshqirdlarda qabila boshliqlari, keyinroq xonlar, ba'zan oqsoqollar o'z ma'muriy hukumatining timsoli sifatida bo'ri boshi ramzi tushirilgan belgini taqib yurganligini Kireyev ta'kidlaydi[7,b.29]. Kaminaning bir qator maqolalari o'zbek xalqi etnomadaniyatida bo'ri timsoliga bag'ishlangan bo'lib, ularda muammoga doir ilmiy adabiyotlar va yozma manbalar ham tahlil qilingan[1,2]. V.A.Slavgorodskiy va I.V.Matyushkolar yozma manbalardagi ma'lumotlarni o'rganib, qadimgi xalqlarning ma'naviy madaniyatida hayvonlarga sig'inish katta o'rin tutganligini yozadilar[12].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Turkiylarning kelib chiqishi va hayoti, diniy e'tiqodlari haqidagi afsonalar ko'plab yozma manbalarda va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Xitoy yozma manbalarida aks etgan qadimgi turkiylar afsonalaridan birida Xunnu (Sunnu) xonadonidan bo'lgan Ashina urug'i jangda yengilib, butunlay yo'q qilindi aytiladi. Faqat o'n yoshli bolakay tirik qoldi, chunki u juda yosh edi, uning oyog'ini va qo'lini kesib, botqoqlikka tashladilar[6,b.17]. Ona-bo'ri bolani topib, parvarish qildi va o'stirdi. Afsuski, yigitning taqdiri og'ir bo'lib, o'n yildan so'ng yigit o'ldiriladi va bo'ri esa tog'lar bilan o'ralgan vodiya panoh topadi va u yerda o'n o'g'il tug'iladi. Ulardan, afsonaga ko'ra, o'nta turkiy qabila kelib chiqqan. Bo'riga sig'inish turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlardan kelib chiqqan desak, xato bo'lmaydi[5,b.33-35].

“Osmon bo'risi” sajdasida bo'ri sajdasining mantiqiy davomi hisoblanadi. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi tarixi qadimgi Ashina urug'i tarixidan kelib chiqadi va ona-bo'ri tomonidan dunyoga keltirilgan “o'nta o'g'il”dan tarqaladi. Osmon bo'risi turkiylarning g'alabalarida muhim rol o'ynaydi, chunki u qo'shinning yetakchisi hisoblanadi[5, b.35].

Turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqidagi boshqa bir rivoyatda aytilganidek, g'orning ichkarisida ulkan vodiya bo'lgan. Vodiya to'rt tomonidan baland tog'lar bilan o'ralgani uchun uni g'or (ungur) deb atashgan, u yerda istiqomat qilgan odamlarni esa “g'ordagi odamlar” deyishgan. Bu g'or haqida Xitoy yozma manbalarida ham ma'lumot bor. Turkiylarning Ashina urug'i ana shu g'orda VI asrning boshlarigacha yashagan[5, b.34].

O'rta asrlarda Rashid-ad-Din (1247-1318 yy.) o'z asarida turkiy qabilalarning kelib chiqishini bayon qilib, qadimgi ko'chmanchilar yovuz dushmanlaridan qutulib, baland tog'lar bilan o'ralgan vodiya o'rnashdilar, deb yozgan[10, b.92]. Keyinchalik ular g'ordan chiqqach, dasht bo'ylab tarqalib ketishdi.

Turkiy otliqlarning eng muvaffaqiyatli va qudratli bo'linmalari, Xitoy manbalarida aytilganidek, bo'rilar deb atalgan. Qadimgi turkiylarning Ashina urug'ining tug'ida ham vahshiy bo'riining boshi tasvirlangan. X-XI asrlarda o'g'uz qipchoqlarning totemi bo'lgan bo'z bo'ri haqida ham ko'plab rivoyatlar yaratilgan. Bo'ri deb tarjima qilinishi mumkin bo'lgan “bure” so'zi qadimgi turklar tomonidan nom hosil qilishda qo'llanilgan[5,b.66].

Bo'ri totemi turkiy qabilalar uchun umumiy bo'lgan, keyinchalik turkiy jamoaning yemirilishi bilan totemning o'zi ham ag'darilib ketgan. Binobarin, qabilalar ittifoqining timsoli sifatida totem tasviri yo'qolishi kerak edi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, keyinchalik ular hayvonning tusini yoki rangini ajrata boshladilar va turli xil ranglar ba'zi qabilalarning totemlariga aylandi. Misol uchun, tatarlarning ba'zi vakillari ularning ajdodi Oq bo'ri ekanligiga ishonishgan, u haqida afsonalar, ertaklar yozilgan. Bir rivoyatga ko'ra, qadim zamonlarda odamlar tog'li va o'rmonli joylarda kezib yurib, adashib qolishgan va ularni dushmanlar o'rab olishgan. O'shanda ularni Oq bo'ri o'limdan qutqardi, u ularni o'z himoyasiga olib, odamlarni qamaldan yashirin yo'llar bo'ylab olib chiqqan.

Bir tatar afsonasida "Ak Bure" yoki Oq bo'ri o'zining tashqi qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan, qahramonlarga yordam beradigan, dushmanlari bilan kurashadigan, ularni toshdan yasalgan butlarga aylantiradigan sehrli bo'ri sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, tatar xalq og'zaki ijodida bo'ri o'ta qudratli va ulkan mavjudot sifatida namoyon bo'lganini ko'ramiz. Uning oddiy

odamdan ustun bo'lgan kuchi va hajmi ramziy ma'noda umumturkiy miqyosdagi qahramon bo'lgan afsonaviy Alp bilan taqqoslanadi[12].

Qadimgi tatarlar xalq og'zaki ijodida Oq bo'ri ularning homiysi edi. Buni ma'lum urf-odatlarda ko'rish mumkin, masalan, kunduzi ertak aytish taqiqlangan, topishmoqlar yasash ham taqiqlangan. Bu haqda xalq orasida tarqalgan maqollarda aytiladi: Kondez ekiyat soylegen keshene ak bure ashar (Kunduzi hammaga ertak aytib berganni oq bo'ri yutib yuboradi); Tabyshmakny kondez eitse, bure ochriy, imesh (Kunda kim kunduzi topishmoq aytsa, bo'riga duch keladi). Shuni ham ta'kidlash kerakki, folklorga faqat totem homiylik qilishi mumkin edi.

Ko'chmanchi chorvador qabilalarida buqa va qo'y kultlari ham tarqalgan. Turkiy xalqlarning asoschisi hisoblangan O'g'uz hoqonning ismidagi o'g'uz etnonimi "buqa"ga mos tushadi[4,b.33]. Ikkinchi turkiylar sulolasining geraldik tasviri esa serka yoki tog' echkisi bo'lgan[11,b.198]. Hosildorlik (va har qanday mo'l-ko'lchilikning) sajdasi bilan qo'chqor timsoli bog'langan. Qo'chqor (qo'y) obrazi shuningdek, suv stixiyalari, namlik va hatto osmondagi bulutlar bilan bog'lanadiki, ular mifologik-shoirona nazarga osmondagi o'tloqlarda yurgan suruvlar kabi ko'rinadi. Qo'chqor oily hokimiyat ramzi hisoblangan, uning tasvirlari yakka hokimiyatchilikning asosiy atributlari – toj va taxtga muhrlangan. Shuningdek, qo'chqor obrazi urug' a'zolarining totem hayvonlarining shakliga kirishi, gavdalanishi, qayta tug'ilishi haqidagi arxaik tasavvurlar bilan bog'liq. Ierarxiyada qo'chqor otdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Masalan, Kul Tegin ibodatxonasiga kirishda ikkita qo'chqor haykali bor va ularning boshlari bir-biriga qaratilgan.

**XULOSA.** Manbalarda va ilmiy adabiyotlarda bo'riga sajda qilish, uni ajdod deb bilish ko'p eslatiladi. Shu bilan birga buqa, serka, qo'y kabi hayvonlar kulti ham tarqalganligi ilmiy asoslab berilgan. Bu nafaqat totemizm bilan bog'liq, balki, shuningdek, turkiy xalqlarning rivoyatlarini zoolatriya yoki teroteizm (hayvonlarga sajda qilish) kabilarga mansub deb hisoblash kerak, chunki hayvonlarga sajda qilishga ovchilik, chorvadorlikning rivojlanishi va ular bilan bog'liq sajdalar, hayvonlar oldidagi qo'rquvning mavjudligi ta'sir ko'rsatgan [2]. Demak, mavzuni kengaytirilgan tarzda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алибеков У.Ю. Ўзбек халқи этномаданиятида бўрининг “бош чаноғи култи” хусусида // О'zbekiston arxeologiyasi. 2018. №1 (16). - Б.24-32. <https://assets.uzsci.uz/edition/file/5dbc69591415b.pdf>
2. Алибеков У., Умарова А. Туркий халқларнинг тотемистик қарашларида бўри тимсоли // Society and innovations. Special Issue – 5 (2021) – P.39- 48. [https://www.researchgate.net/publication/352855825\\_Turkiy\\_halklarning\\_totemistik\\_va\\_etno\\_mifologik\\_karaslarida\\_buri\\_timsoli](https://www.researchgate.net/publication/352855825_Turkiy_halklarning_totemistik_va_etno_mifologik_karaslarida_buri_timsoli)
3. Баялиева Т.Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов – Фрунзе, 1972.
4. Бернштам А. Н. Историческая правда в легенде об Огуз-кагане // Советская этнография. Л., 1935. № 6. - С. 33.
5. Гумилев Л. Н. Древние тюрки. - М., 1993. - 526 с.
6. Давлетшин Г.М. Некоторые сюжеты из области духовной культуры древних тюрков // Древнетюркский мир: история и традиции. - Казань, 2002. - 10-25 с.
7. Киреев А.Н. Башкирский народный героический эпос. – Уфа, 1979.
8. Кюннер Н. В. Китайские известия о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. - М., 1961. - 391 с.
9. Пардаев М.Х. Қўй ва бўри руҳига сиғинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1995. № 5-6-7-8. - 42-46 б.
10. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. Том 1. Книга 1. - М.-Л. 1952. - 220 с.
11. Савинов Д.Г., Кляшторный С.Г. Степные империи древней Евразии. - СПб., 2005. - 346 с.
12. Славгородский В.А., Матюшко И.В. Культы древних тюркских племен по данным письменных источников // Ceteris Paribus. 2015. №4. С. 65-67.
13. Соатова С. Зооморф тимсоллар билан боғлиқ анъаналарнинг ўрганилишига доир.// Марказий Осиё халқлари тарихи манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари. 4-илмий тўплам. - Т.:ТДШИ, 2012. - Б.228.
14. Тошбоев Ф., Мамиров О. Уструшонанинг зооморф топинчлари (қўй топинчи археологик материаллар асосида). // Ўтмишга назар. 2021. №11. Б. 81-89.